

INGLIZ TILI DARSLARIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI INTEGRATIV MASHQLAR TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mamaziyoyeva Orzixon Odiljon qizi

Guliston pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20609736>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rni, ahamiyati va bu haqida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning bildirgan fikrlari, shuningdek o'quvchilar so'z boyligini boyitish va o'rganilgan yangi so'zni amaliyotga qo'llash malakalariga erishishda mashqlar tizimining ahamiyati va to'rtta nutq malakalarini dars davomida integratsiya qilish xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: leksik bilim, ko'nikma, malaka, integratsiya, mashq, bosqich

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinflarida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishga erishish dars davomida olib boriladigan amaliy mashqlar orqali amalga oshiriladi. Chet til o'qitishda mashqlar bajarish asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Chet tilni o'rganishda mashqlar sistemasi bo'yicha J.Jalolov, M.Djusupov, B.A.Lapidus, M.S.Ilina, I.L.Bim, P.Ya.Galperin, D.I.Izarenkova, A.A.Miroyubov, A.A.Alxazishvili, T.A.Ramsinoy va V.I.Andriyanovalar tadqiqotlarida fikrlar bildirilgan [1].

Tilni o'rganish, odatda, mashq qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mashqlarning asosiy mazmuni o'quvchilarda nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'nikmalarni hosil qilish, shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Mashq ayni vaqtda nutq faoliyat turlarini egallovchi, osonlashtiruvchi va tezlashtiruvchi o'quv vositasi bo'lib, nutq faoliyati turlarini integrativ rivojlantirishda mashqlarning turi juda ahamiyatli hisoblanadi [2].

Ye.I.Passov har qanday mashqlar kommunikativ, lingvistik va psixologik xususiyatlarga ega degan fikrni ilgari surgan edi. Uning fikricha, kommunikativ mashqlar haqiqiy kommunikativ mashqlar va shartli kommunikativ mashqlar turlariga bo'linadi. Haqiqiy kommunikativ mashqlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va shartli kommunikativ mashqlar mashg'ulotlar jarayonida shartli muloqot vaziyatini yuzaga keltirishni taqozo etadi.

V.A.Buxbinder informasion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida tadqiqot olib borgan. Ularni uch turga bo'lgan. Sodda qilib ularni bilim, ko'nikma va malaka berish mashqlari deb atashni tavsiya etgan.

J.Jalolov, T.Sattorov va A.Soynazarovlar chet tillarini o'rganishda qo'llaniladigan mashqlar sistemasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar turlariga bo'lganlar. Ularning fikricha, shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq esa chet tilida fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi [2].

J.Jalolov mashqlarda til materiallarni tayyorlov bosqichini 3 ta guruhga bo'ladi: tanlov (Selection), tasnif (Classification), taqsimlash (Distribution), statik prezentasiya (Static presentation).

Til materialini o'zlashtirish esa to'rt bosqichda amalga oshishini ta'kidlaydi: tanishuv, taqdimot (Presentation), mashq qilish (Training), qo'llash (Using), baholash (Assessing) [2].

Demak, mashqlar o'quvchilar bilim darajalariga mos ravishda tanlanadi va dars materialiga asoslanib tasniflanadi, nutq faoliyati turlari bo'yicha taqsimlanadi va dars davomida mavzuni mustahkam o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

Metodist olimlar tomonidan taklif etilgan barcha mashq turlari tillarni o'rganishda samaradorlikni ta'minlashga katta yordam berishi, shubhasiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan kuzatishlar bugungi kunda chet til darslarida yuqorida qayd etilgan mashq turlari bilan bir qatorda o'qituvchilarning yangi zamonaviy metod va yondashuvlar, til strategiyalari, yangi tipdagi mashq va topshiriqlar, qiziqarli autentik materiallardan unumli foydalanayotganliklarini ko'rsatmoqda. Jumladan, Communicative language teaching (CLT, E.I.Passov), Competency-based language teaching (CBLT, E.A.Schneck), The Natural Approach (N.A.T.Terrel), Cooperative language learning (CLL, J.Dewey), Content based instruction (CBI, C.J.Bruton), Task based language teaching (TBLT) kabi yangi zamonaviy metod va yondashuvlar mashg'ulotlarning samarali kechishiga olib kelmoqda.

Biroq ularda nutq faoliyati turlarini integratsiyalash, to'rt amaliy ko'nikmani uyg'unlashtirib qo'llashga yo'naltirish maqsadi ko'zda tutilmagan. Yuqori sinf o'quvchilarining tilni mukammal egallaganliklari har qanday vaziyatda nutq faoliyati turlarining istagan turini erkin amaliy qo'llay olish layoqati bilan o'lchanadi. Shunday ekan, o'quvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda aynan nutq faoliyati turlarini uyg'unlikda, integratsiyalashgan tarzda qo'llashga yo'naltirilgan mashqlaridan keng foydalanish zarur bo'ladi. Shu fikr-mulohazalardan kelib chiqib, olib borgan tadqiqotimiz jarayonida biz o'rta maktablarda ingliz tilini o'qitishda nutq faoliyati turlarini integratsiyalab qo'llashning 2 bosqichli texnologik tizimini ishlab chiqdik [3;4].

Integrativ mashqlarning birinchi bosqichida nutq faoliyatining barcha turidan dars jarayoni davomida foydalanish ko'zda tutiladi. Ikkinchi bosqichda esa bu jarayon tezlashtirilib, o'rganilayotgan bitta matn ichida to'rt amalni qo'llash tavsiya etiladi. Mashqlar va topshiriqlarni shu tarzda integratsiyalashtirib o'qitish nutq faoliyat turlarini mustahkamlashga olib keladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga fikrini jamoada erkin ifodalash va tinglash, vaziyatlarga kirisha olishi uchun shart-sharoit yaratib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini, motivasiyasini oshiradi va vaqtdan unumli foydalanishga zarur shart-sharoit yaratadi.

Birinchi bosqichda o'quvchilar tomonidan mashg'ulot davomida nutq faoliyati turlaridan, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv jarayonida foydalanishga erishish, mashg'ulot jarayonida ularni mashq va topshiriqlar bajarganda integratsiyalab qo'llashni ko'zda tutadi. Ushbu bosqichda nutq faoliyatining to'rt amaliy turi bo'yicha quyidagi mashqlar taklif etiladi:

I. Tinglab tushunishni o'rgatishga oid topshiriqlar (Tasks on listening skills):

1. Matnni tinglash va eshitgani asosida mos rasmlarni belgilash (listen to the text and match them to the photos); 2. Dialogni tinglash va rasm asosida ketma-ketlikda joylashtirish (listen to the radio and put the pictures in order); 3. Matnni tinglash va nuqtalar o'rniga mos so'zlar bilan to'ldirish (listen to the text and fill in the blank);

II. Gapirishni o'rgatishga oid topshiriqlar (Tasks on speaking skills): 1. Rasmni og'zaki tasvirlash (Describe the pictures); 2. So'zlar asosida gap tuzish (Make up sentences with words); 3. Rolli o'yinlar tuzish (Role play); 4. Dialog jarayonida qatnashish (Dialog); 5. Monolog jarayonida qatnashish (Monologue); 6. Intervyu berish (Interview); 7. Bahs munozarada qatnashish (Round table discussion); 8. Debatni tashkil etish (Debate); 9. Taqdimot qilish (Presentation).

III. O'qishni o'rgatishga oid topshiriqlar (Tasks on reading skills): 1. Matnni o'qish va savollarga javob berish (Read the text and answer the questions); 2. Matnga mos sarlavha tanlash (Choose the suitable title); 3. Matnni o'qish, to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni belgilash (Read the text and underline True (T) or False (F) sentences); 4. Dialogni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish (Put the sentences in logical order); 5. Matndagi to'g'ri javoblarni tanlash (Multiple choice) mashqlari.

IV. Yozuvni o'rgatishga oid topshiriqlar (Tasks on writing skills): 1. Diktant yozish (writing dictation), bayon yozish (writing composition); 2. Paragraf yozish (writing paragraph); 3. Rasmni tasvirlab yozish (descriptive writing); 4. Rasmiy va norasmiy xatlar yozish (writing formal and informal letters); 5. Reseptlar yozish (to write a recipe).

Tinglab tushunish malakasi bo'yicha topshiriqlar (Tasks on listening skills): matnni tinglash va ma'no jihatdan xronologik tartibda joylashtirish (listen to the text and put it in chronological order); dialogni tinglash va to'g'ri va noto'g'ri gaplarni belgilash (listen to the dialog and underline True (T) or False (F) sentences); matnni tinglash va nuqtalar o'rnini sinonimlar yoki mos so'z birliklari bilan to'ldirish (listen to the text and complete the gaps with synonyms or parallel expressions); dialogni tinglash va savollarga javob berish (listen to the dialogue and answer the questions); muammoli vaziyatni tinglash va unga maslahat yozish (listen to the problematic situation and write a piece of advice).

Gapirish malakasi bo'yicha topshiriqlar (Tasks on speaking skills): Filmni mazmunini gapirib berish (retell the film), hikoya yoki asarni mazmunini gapirib berish (retell the story or novel), rasmdagi vaziyatni tasvirlash (describe the situation in the picture), debatlarida qatnashish (debate); muhokamalarda ishtirok etish (discussion), tok show (Talk show), rolli o'yinlar (Role plays), malumot almashish (Information gap activities), fikrni isbotlash (Survive), improvizatsiya (Improvisation), konsilium (Consilium).

O'qish malakasi bo'yicha topshiriqlar (Tasks on reading skills): matnni o'qish va ketma-ketlikda joylashtirish (Read the text and put it in chronological order), savollarga javob berish (Answer the questions), matn asosida nuqtalar o'rnini to'ldirish (Fill in the blanks), matndan idiomatik birikmalarni topish (Find the idioms and expressions), matn asosida to'g'ri javobni tanlash (Multiple choice).

Yozuv malakasi bo'yicha topshiriqlar (Tasks on writing skills):

turli xil shakldagi insholarni yozish (writing different types of essays), annotasiya yozish (writing annotation), hikoyani davomini yozish (continue the story), muammoli vaziyatga yechim yozish (writing solution of the problem).

Integratsiyalashgan ta'lim tushunchasining nazariy asoslarini o'rganib chiqish, darslarda nutqiy faoliyat turlarini integratsiyalashtirib qo'llashga erishish o'quvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanib tashkil etilgan 9-11-sinf o'quvchilari uchun integratsiyalashgan dars namunalari berildi. Mashg'ulotlarda nutq faoliyati turlarini shu nazarda integratsiyalashtirib til o'rgatish samaradorligini bir necha bor ortishini ko'rsatmoqda. Xususan, 9-11-sinf o'quvchilari bilan shunday integratsiyalashgan darslarni muntazam o'tkazish:

1. O'quvchilarning autentik matndagi va turli psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan (tezlik, ovoz, ohang, talaffuzining baland-pastligi, nutqlarni tushunish va ularga javob berish); 2. Dialoglar va poliloglarda erkin ishtirok etish; 3. O'z fikrlarini bog'lanishli monologni ifodalay

olish; 4.Ovoz chiqarib ifodali o'qish; 4. Yozma ifodalay olish ko'nikmalariga bir yo'la rivojlantirishiga yordam beradi.

Dars jarayonida ingliz tili darslarida to'rt nutq faoliyat turlarini integratsiyalashtirib o'qitish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli yaxshilanishiga olib keladi. Shuni unutmash kerakki, vaziyatlar va hayotiy faoliyatimiz davomida nutq faoliyat turlari alohida qo'llanilmaydi, aksincha, har qanday muloqot tinglash va gaplashish, o'qish, yozuv yoki aksincha jarayonlardan iborat bo'ladi. Demak, ingliz tilini puxta o'rgatish uchun nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalashtirib uyg'unlikda va uzluksizlikda qo'llashni o'rganishning amaliy ahamiyati kattadir. Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilar nutqiy faoliyatining barcha turlarini birdek rivojlantirish nihoyatda muhim bo'lib, bu maktablarda integratsiyalashgan mashq va topshiriqlarni joriy etish, ta'lim jarayoniga samarali interfaol usullarni tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения.
2. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –Toshkent.: O'qituvchi,
3. West R. & Sheykhmetova E. (eds) The State of English in Higher Education in Uzbekistan: A Baseline Study, Tashkent. 2017: British Council, Uzbekistan World Languages University, Uzbekistan Scientific-Practical Innovation Centre, Ministry of Higher and Secondary Specialised Education.
4. Seymour Sh. Essentials of Teaching Academic Reading: English for Academic Success. – Houghton Mufflin Company, **2006.**,
5. Пассов Е.И., Кузнецова Е.С. Формирование лексических навыков. Учебное пособие. Воронеж, – 2002